

ZANGAT MAHALLASIDA YANGI MINI-STADION FOYDALANISHGA TOPSHIRILDI



Zangat mahallasida yangi mini-stadion foydalanishga topshirildi


Hududlar, ayniqsa, eng chekka qishloqlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish, ko'kalamzorlashtirish va obodonlashtirilishida Respublikamizda katta imkoniyatlar yaratilgan. Bugun fuqarolarimiz o'z ovozi va tashabbusi bilan Vatan obodligiga salmoqli hissa qo'shishayotir. Bunga "Openbudget" loyihalari asosida amalga oshirilayotgan qurilish-ta'mirlash ishlari misol bo'la oladi.

Bizning tumanimizda ham mazkur loyiha yo'gla qo'yilgandan so'ng keng ko'lamlı qurilish-ta'mirlash ishlari olib borildi. Bugun Zangat mahallasida joylashgan 25-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabida aynan "Tashabbusli byudjet" orqali qurilgan mini-stadion foydalanishga topshirildi.

Taqdimot marosimida ishtirok etgan tuman hokimi Sayidbahrom Sayidmusayev barcha mahalla ahli va maktab jamoasini ushbu unutilmas ayyom bilan tabrikladi. Tadbir jarayonida qurilish ishlarida faol bo'lganlar, mahalla faollari va quruvchilarga tashakkurnomalar va esdalik sovg'alari topshirilib, futbol musobaqasi ham o'tkazildi.

Zangat mahallasidagi mazkur inshoot qurilishi "Zangat mahalla fuqarolar yig'inida joylashgan 25-son maktabiga mini sun'iy stadion qurish va maktab atrofini temir panjara bilan o'rash" loyihasi asosida amalga oshirildi va qurilish ishlariga 1 milliard so'mdan ortiq mablag' sarflandi.

Ma'lumot uchun: 2024 yil davomida So'x tumanida "Tashabbusli byudjet" orqali 16 ta inshoot qurildi va ushbu ezgu maqsadlarga 19 milliard 860 million 810 ming so'm yo'naltirildi.







Bizni ijtimoiy tarmoqlarda kuzating

[Facebook](#) | [Telegram](#) | [Telegram murojaat](#) | [Youtube](#) | [Instagram](#)

2025-01-15 17:23:19